



TALABALARNING EPISTEMOLOGIK FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
Xolmirzayeva Dilaferuz Xolmirzayeva
dilafuzxolmirzayeva270@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233158>

Annotatsiya. Ushbu maqolada epistemologik faoliyatning mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Bu faoliyat talabalarning nafaqat ma'lumotlarni o'rganish, balki ularni chuqur anglash, sinovdan o'tkazish va amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan. Maqola, epistemologik faoliyatni rivojlantirishda tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik, va o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarni muhim omillar sifatida ta'kidlaydi. Shuningdek, bu faoliyatning ta'limdagi samaradorlikka ijobiy ta'sirini va talabalarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga yordam berishini ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Epistemologik, faoliyat, bilim olish, tushunish, tahlil qilish, sinovdan o'tkazish, yangi bilimlarni yaratish, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik, akademik rivojlanish.

Epistemologik faoliyat — bu bilish, tushunish, tahlil qilish va o'rganish jarayonlari bilan bog'liq faoliyatdir. Ushbu faoliyatning asosi kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi, ya'ni, insonning bilim olish, tushunchalarni shakllantirish va ulardan amaliyotda foydalanish kabi aqliy faoliyatlari kiradi.

Epistemologik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u faqat bilimlarni yodlash yoki o'rganish bilan cheklanmaydi, balki bu bilimlarni tahlil qilish, sinovdan o'tkazish, baholash va yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. Epistemologik faoliyatni rivojlantirishda tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik, muammolarni hal qilish va o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi.

Epistemologik faoliyatning asosiy jihatlaridan biri bilim olishdir, yani yangi ma'lumotlarni qabul qilish va o'rganish. Undan tashqari tushunish va tahlil qilish, olingan bilimlarni chuqurroq anglash hamda sinovdan o'tkazish, jumladan bilimlarni amaliyotda qo'llash va ularni tekshirish. Shuningdek yangi bilimlarni yaratish, yangi kontekstlarga tatbiq etish va yangiliklar ishlab chiqish kabi ko'plab jixatlari mavjud.

Talabalarning ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, ularni tushunish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq qilishga yo'naltirilgan bu jarayon talabalar uchun nafaqat o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, balki ularning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, epistemologik faoliyat, ya'ni bilish va tushunish jarayoni, talabalarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini belgilovchi muhim omildir. Ta'lim jarayonida talabalar faqat ma'lumotlarni yodlash bilan cheklanmay, balki ularni chuqurroq anglash, tahlil qilish va amalda qo'llashni o'rganishlari kerak. Shunday qilib, talabalarning epistemologik faoliyatini shakllantirish, nafaqat ularning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ular uchun ta'limda yuqori samaradorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada, talabalar epistemistik faolligini shakllantirish omillari va uning baholash mezonlari tahlil qilinadi.

Epistemologik faoliyatning to'liq shakllanishi, talabaning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, va yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar epistemologik faolligini shakllantirish uchun bir nechta omillar mavjud:

O'qituvchining yondashuvi va metodlari: O'qituvchining o'qitish metodikasi va darslarga yondashuvi talabalarning epistemologik faolligiga bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchi talabalarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun savollar berishi, muammoli vaziyatlar yaratishi va bahs-munozaralar tashkil qilishi lozim. O'qituvchining qo'llaniladigan didaktik usullari va yondashuvlar talabalar uchun qiziqarli va interaktiv ta'lim muhitini yaratadi, bu esa o'z navbatida epistemologik faoliyatni rivojlantiradi.




Talabaning motivatsiyasi va qiziqishi: Talabaning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasi va qiziqishi uning epistemologik faolligiga bevosita ta'sir qiladi. Jumadan, o'quvchilar ta'limni faqat ma'lumotlarni olish emas, balki o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun qiziqarli va foydali deb bilishlari kerak. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar yangi bilimlarni o'rganish uchun intilishadi va bu ularning epistemologik faoliyatini kuchaytiradi.

Ta'limning interaktivligi: Ta'lim jarayonining interaktiv bo'lishi, talabalarning o'zaro fikr almashishi, guruhli ishlari, va amaliy mashg'ulotlar orqali bilishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Interaktiv ta'lim shakllari, talabalar o'rtasida kommunikatsiyani rivojlantirib, ularni fikrini to'liq va aniq ifodalashga, yangi g'oyalar yaratishga va tushunchalarni sinovdan o'tkazishga undaydi.

Texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalar epistemologik faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Internet-resurslar, onlayn platformalar, va interaktiv dasturlar yordamida talabalar o'z bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishi, bilimlarni baholashda yangi usullarni sinovdan o'tkazishlari mumkin.

Shaxsiy tajriba va o'z-o'zini o'rganish: Talabalar o'z shaxsiy tajribalarini o'rganish va amaliyotda qo'llash orqali bilimlarni mustahkamlashlari mumkin. O'z-o'zini o'rganish, talabaning o'z fikrini shakllantirish va yangi bilimlarni amalda qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ishlash va o'zini baholash orqali talabalar epistemologik faoliyatlarini chuqurlashtiradilar. Shu jumladan talabalarga epistemologik faollikni baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Talabalar epistemologik faolligini baholash, an'anaviy baholash tizimlaridan farq qiladi. Ular nafaqat o'quvchilarning bilganlarini, balki ularning bilishni qanday amalga oshirganliklarini ham baholaydi. Quyida baholash mezonlari jadvali keltirilgan. (1-jadval)

Talabalarning epistemologik faoliyatini baholash



Oliy ta'lim talabalarining talim loyihalarini rivojlantirishning epistemologik asoslari samarali amalga oshirilishi uchun ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etishimiz uchun biz quyidagi vazifalarni o'z oldimizga belgilab olishimiz dardkor.

1. Bo'lajak pedagoqlarni kasbiy rivojlantirish jarayonining kontseptual sohasini aniqlash.



2. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy rivojlantirish uchun epistemologik asoslarni o'rganishning uslubiy regulyatorlarini aniqlash

3. Epistemologik asoslarda bo'lajak pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash.

4. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy rivojlantirish uchun jarayon modelini ishlab chiqish.

5. Epistemologik asoslarda bo'lajak pedagoglarni kasbiy rivojlantirishni dasturiy uslubiy va instrumental-texnologik qo'llab - quvvatlashni ishlab chiqish. 1.[94-95]

Komplekslik va mustahkamlik: Epistemologik faoliyatni baholashda, talaba tushungan mavzuni qanday darajada chuqur o'rganganligi va uning mustahkamligini baholash kerak. Komplekslik talabani o'rgangan bilimlarini bir nechta kontekstlarda qo'llay olish qobiliyatini bildiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talabalar epistemologik faolligini shakllantirish, ta'lim jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu faollikni shakllantirish uchun o'qituvchilar, ta'lim metodlari, talabalarning motivatsiyasi, interaktiv ta'lim, texnologiyalar va mustaqil o'rganish jarayonlari kabi bir qator omillar ahamiyatlidir. Epistemologik faollikni baholash esa nafaqat bilimlarni o'lchash, balki ularning tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni yaratish va amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarni yuqori darajadagi mustaqil o'ylash va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANTIRISH UCHUN EPISTEMOLOGIK KONTSEPTSIYANI AMALGA OSHIRISH. Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi. INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES. <http://interoncof.com>. [94-95]

2. BUYUK FAYLASUFLAR QARASHLARIDA “BILIM” VA “E'TIQOD” TUSHUNCHALARINING DIFFERENSIATSIYASI G'ofur Bobonazarovich Xolmo'minov. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

3. BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANTIRISH UCHUN EPISTEMOLOGIK KONTSEPTSIYANI AMALGA OSHIRISH Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi “University of economics and pedagogy” NOTM

4. AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA EPISTEMIOLOGIYA VA RATSIONALLIK MUAMMOSI G'ofur Bobanazarovich Xolmo'minov. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения. <https://cyberleninka.ru>

5. Epistemologiyaning zamonaviy muammolari –T.: O_zR FA I.Mo_minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2011.

6. Abdullaeva M.N. Epistemologicheskaya evolyusiya ratsionalizma // M.Ulug_bek nomidagi Milliy universitetning 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya materiallari to'plami. -T., 2009